

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAQATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARINING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KORXONALARNING MOLIVAVIY MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	208
Atadjanova Sevinch Qurbonbayevna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	214
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNI QO'LLASH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	222
I.R.Sabirjanova	
OPPORTUNITIES FOR UTILIZING TAX INCENTIVES GRANTED TO SMALL AND MEDIUM-SIZED ENTERPRISES FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEREGIONAL ECONOMY	228
Palvanbayev Umidbek Uktam o'g'li	
MINTAQAVIIY TURISTIK KLASTERLARNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: IQTISODIY SAMARADORLIK MODELII	233
Kazokova Dilnoza Bobirovna	
KORPORATIV BOSHQARUVNING QURILISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	238
G'iyosov Ilxom Karimovich	



O'ZBEKISTONDA KAPITAL BOZORINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI TAHLILI	246
Xaitova Gulmira Matsalayevna	
SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	253
Sangirova Umida Ravshanovna	



SUV TEJOVCHI INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI



Sangirova Umida Ravshanovna

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti iqtisod
fanlari nomzodi, dotsent

ORCID: 0000-0001-8300-8187

E-mail: u.sangirova1970@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish sharoitida suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning nazariy-konseptual asoslari ko'rib chiqilgan. Suv tanqisligining kuchayishi, iqlim o'zgarishi, aholi va iqtisodiyot ehtiyojlarining ortishi hamda qishloq xo'jaligida suv resurslariga bo'lgan bosimning kuchayishi sharoitida suv tejamkor texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy, ekologik va institutsional ahamiyati asoslangan. Maqolada suv sarfining kamayishi bilan haqiqiy suv tejami tushunchalari o'rtasidagi farq asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: suv resurslari, suv tejovchi texnologiyalar, innovatsiya, suvdan foydalanish samaradorligi, tomchilatib sug'orish, raqamlashtirish, Smart Irrigation, IoT, lazerli tekislash, suv xavfsizligi, institutsional mexanizm.

Аннотация. В статье рассмотрены теоретико-концептуальные основы развития инновационных водосберегающих технологий в условиях эффективного и рационального использования водных ресурсов. Обосновано экономическое, экологическое и институциональное значение внедрения водосберегающих технологий в условиях усиления дефицита воды, изменения климата, роста потребностей населения и экономики, а также увеличения нагрузки на водные ресурсы в сельском хозяйстве. В статье обосновано различие между сокращением расхода воды и фактической экономией водных ресурсов.

Ключевые слова: водные ресурсы, водосберегающие технологии, инновации, эффективность водопользования, капельное орошение, цифровизация, Smart Irrigation, IoT, лазерное выравнивание, водная безопасность, институциональный механизм.

Abstract. The article examines the theoretical and conceptual foundations for the development of innovative water-saving technologies in the context of efficient and rational use of water resources. The economic, environmental, and institutional significance of introducing water-saving technologies is substantiated in the context of increasing water scarcity, climate change, growing demands of the population and the economy, and increasing pressure on water resources in agriculture. The article substantiates the distinction between a reduction in water use and actual water savings.

Keywords: water resources, water-saving technologies, innovation, water-use efficiency, drip irrigation, digitalization, Smart Irrigation, IoT, laser land leveling, water security, institutional mechanism.



KIRISH

Suv resurslarining cheklanganligi XXI asrda iqtisodiy taraqqiyot, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik barqarorlikni belgilab beruvchi strategik omillardan biriga aylanmoqda. Iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik jarayonlarining kuchayishi, aholi sonining ortishi va iqtisodiyot tarmoqlarida suvga bo'lgan talabning o'sishi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishni obyektiv zaruratga aylantirmoqda [1].

Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining transchegaraviy xususiyatga ega ekanligi, qishloq xo'jaligining sug'orishga yuqori darajada bog'liqligi va iqlim o'zgarishining suv ta'minotiga ta'siri suvdan samarali foydalanish masalalarini strategik darajaga olib chiqmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining muhim o'rin tutishi, sug'orma dehqonchilikning keng tarqalganligi va suv resurslarining cheklanganligi suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevralda imzolangan "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-47-sonli qarori bilan suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish bo'yicha yangi tartiblar joriy etilmoqda. Qarorga asosan 2026–2028-yillarda 3,5 mln gektar maydonni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar bilan qamrab olish, jumladan, 220 ming gektarda tomchilatib sug'orish, 110 ming gektarda yomg'irlatib sug'orish va 600 ming gektarda lazerli yer tekislashni joriy etish belgilangan. Qarorda ko'rsatilib o'tilgandek, ushbu choralarning natijasida yiliga 5 mlrd kub metr suv resurslarini tejash maqsadi ko'rsatilgan [2].

Biroq suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish masalasini faqat texnik modernizatsiya sifatida qarash yetarli emasligini bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlar ko'rsatmoqda. Zamonaviy yondashuvda texnologiya, investitsiya, davlat siyosati, fermerlarning bilim va ko'nikmalari, raqamli monitoring, suv hisobi va iqtisodiy rag'batlar yagona innovatsion tizim sifatida qaralishi ushbu tarmoqdagi muammolarning yechilishiga imkon beradi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Suv resurslaridan samarali foydalanish va suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligining suvga bo'lgan talabini kamaytirish, suv mahsuldorligini oshirish, zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish hamda ularni qo'llashning iqtisodiy va institutsional mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni mahalliy va xorijiy olimlarning yondashuvlari asosida tahlil qilish tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlash imkonini beradi.

Mahalliy olimlardan A. Hamidov, A. Akramxanov, M. Hamidov, U. Jo'rayev, Sh. Abulqosimova va K. Helming O'zbekiston misolida suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning texnologik va institutsional jihatlarini tadqiq etgan. Olimlarning 2026-yildagi tadqiqotida tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish kabi texnologiyalarning mavjudligi ularning avtomatik ravishda keng tarqalishini ta'minlamasligi, fermerlarning xavfni qabul qilishi, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari, mahalliy iqlim va ekologik sharoitlarga moslik, bilim va maslahat xizmatlarining yetariligi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan. Mualliflar, shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarni jadal joriy etish ayrim holatlarda "rebound effect", ya'ni tejalgan resurs hisobiga suvdan foydalanish hajmining yana ortishi kabi kutilmagan natijalarni keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Muallif fikricha, ushbu yondashuv suv tejovchi texnologiyalarni faqat texnik innovatsiya sifatida emas, balki iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillar bilan bog'liq kompleks tizim sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, texnologiyaning samaradorligini baholashda uning faqat suv sarfini kamaytirishi emas, balki fermerning daromadi, mahsuldorlik, investitsiya qaytimi va ekologik natijalarga ta'sirini ham hisobga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Z. Shohujayeva, U. Sangirova, Z. Seytimbetova, X. Yaqubova va A. Durmanov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa qishloq xo'jaligida suv resurslarini taqsimlash va boshqarish, suv iste'molchilari uyushmalari faoliyati hamda suv resurslaridan adolatli va samarali foydalanish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari suv resurslarini boshqarishda institutsional mexanizmlar, monitoring, suv taqsimotining shaffofligi va suv iste'molchilari o'rtasidagi hamkorlik muhim ekanligini ko'rsatadi. Bizningcha, mazkur yondashuv suv tejovchi texnologiyalarning samaradorligi faqat fermer xo'jaligi darajasida emas, balki suv manbasidan yakuniy iste'molchigacha bo'lgan butun tizim doirasida baholanishi lozimligini asoslaydi. Demak, texnologiyani joriy etish bilan bir vaqtda suv hisobi, taqsimoti, nazorati va boshqaruv mexanizmlarini ham takomillashtirish zarur.



M. M. Sarimsakov, I. X. Kimsanov va Z. T. Umarova O'zbekiston sharoitida bog'dorchilikda suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Olimlar suv tanqisligi sharoitida suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekinlarni sug'orishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali resurs tejamkorligiga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ularning tadqiqoti suv tejovchi texnologiyalarni bog'dorchilikda qo'llashning amaliy samaralariga e'tibor qaratishi bilan ahamiyatlidir.

Muallif nuqtayi nazaridan, ushbu tadqiqotlarning muhim jihati texnologiyalarning amaliy samaradorligini ko'rsatib berganidadir, biroq suv tejimini faqat fizik tejalgan suv miqdori orqali emas, balki bir birlik suv hisobiga olingan mahsulot va daromad orqali baholash yanada to'liq ilmiy natija beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Suv tejovchi innovatsion texnologiyalar deganda suv resurslaridan foydalanishda yo'qotishlarni kamaytirish, suv berishni aniq me'yorlash, tuproqda namlikni saqlash, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va bir birlik suv hisobiga yuqoriroq iqtisodiy natija olish imkonini beruvchi texnik, agroteknologik, raqamli va boshqaruv yechimlari tushuniladi. Ularning iqtisodiy mohiyati faqat suv sarfini kamaytirishda emas, balki suv resurslarining iqtisodiy qaytimini oshirishda namoyon bo'ladi.

Suvdan foydalanish samaradorligi quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$WP = Y / W$$

bu yerda:

WP — suvdan foydalanish samaradorligi;

Y — olingan mahsulot hajmi yoki uning iqtisodiy qiymati;

W — foydalanilgan suv hajmi.

Demak yuqoridagi formulaga tayangan holda aytadigan bo'lsak, innovatsion texnologiyaning haqiqiy iqtisodiy samarasi "qancha suv tejaldi?" degan savol bilan cheklanmasdan, "bir birlik suv hisobiga qancha qo'shimcha mahsulot yoki daromad yaratildi?" degan mezon asosida baholanishi kerak deb hisoblaymiz.

Suv resurslaridan samarali foydalanishni baholashda faqat irrigatsiya tizimiga beriladigan yoki sug'oriladigan dalaga berilayotgan suv hajmining kamayishiga asoslanish yetarli emas. Suv tejovchi texnologiyalarning haqiqiy iqtisodiy va ekologik samarasini aniqlash uchun suvning butun harakatlanish jarayoni — ya'ni suvning berilishi, o'simlik tomonidan o'zlashtirilishi, bug'lanishi, tuproqqa singishi, drenaj va yuzaki oqimlar orqali qaytishi hamda keyinchalik boshqa foydalanuvchilar uchun qayta mavjud bo'lishi hisobga olinishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Suv tejovchi texnologiyalarning konseptual tasnifi — suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni hisobga olish, boshqarish va qishloq xo'jaligida sug'orish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan usullar va tizimlarning ilmiy-nazariy asoslangan guruhlariga bo'linishidir [4].

Tomchilatib sug'orish: Tomchilatib sug'orishda suv o'simlikning ildiz zonasiga kichik va aniq dozalarda hamda nazorat qilingan tarzda yetkaziladi, ortiqcha yuzaki oqim kamaytiriladi, tuproq yuzasidan bug'lanishni qisqartirish va o'g'itlarni suv bilan birga berish imkoniyati kengroq bo'lib, shu bilan birga mehnat sarfi kamaytiriladi. Muhim jihatlaridan yana biri — ekinning suv bilan ta'minlanishi barqarorlashtiriladi [5].

Yomg'irlatib sug'orish: Suvni yomg'ir kabi purkab sug'orish tizimi hisoblanib, sug'orishda suv maxsus forsunkalar orqali maydonga yog'ingarchilikka o'xshash tarzda tarqatiladi. Bu texnologiya suvni me'yorlash, suvning bir tekis taqsimlanishi, relyefi murakkab maydonlarda sug'orish va avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Diskli va egiluvchan quvurlar: Suvning filtrlanishi va oqib ketishini kamaytirishda keng foydalaniladi.

Diskret sug'orish: Diskret sug'orishda suv maydonga uzluksiz emas, balki belgilangan vaqt intervallarida beriladi. Bunday usul suvning egat oxiriga ortiqcha chiqib ketishini kamaytirish va suv berishni boshqarish imkonini oshiradi. Shu bilan birga, texnologiya samarasi ekin turi, tuproq, maydon relyefi va sug'orish tarmog'i holatiga bog'liq [6].

Agregat va boshqaruv tizimlari: Raqamli va avtomatlashtirilgan suv hisoblagichlar.

Suv tejovchi texnologiyalarni faqat tomchilatib sug'orish bilan cheklash ilmiy jihatdan tor yondashuv hisoblanadi. Ularni suvning harakatlanish va boshqarilish jarayonidagi vazifasiga ko'ra olti asosiy guruhga ajratish mumkin (1-jadval) [7].



1-jadval.

Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarning tasniflanishi

№	Texnologiya guruhi	Asosiy texnologiyalar	Asosiy vazifa
1	Suv berish texnologiyalari	Tomchilatib, yomg'irlatib, diskret sug'orish	Suvni ekin ehtiyojiga mos yetkazish
2	Infratuzilma texnologiyalari	Yopiq quvurlar, beton kanallar, avtomatik shlyuzlar	Tashish va taqsimlashdagi yo'qotishlarni kamaytirish
3	Agrotexnologiyalar	Mulchalash, minimal ishlov, lazerli tekislash	Namlikni saqlash va suvning bir tekis taqsimlanishi
4	Raqamli texnologiyalar	IoT, sensorlar, GIS, sputnik monitoringi	Suv va tuproq holatini nazorat qilish
5	Qayta foydalanish texnologiyalari	Drenaj va tozalangan suvni qayta ishlatish	Yangi suv manbalariga bosimni kamaytirish
6	Intellectual texnologiyalar	AI, Smart Irrigation, prognozli modellar	Suv berishni avtomatik optimallashtirish

Ta'kidlash joizki, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ekin tanlash, tuproq holati, minimal ishlov berish, sug'orish muddatini optimallashtirish, mulchalash, tomchilatib sug'orish va drenaj kabi choralarni kompleks qo'llash muhim hisoblanadi. Suv resurslarining bir qismi bevosita dalaning o'zida emas, balki suvni manbadan iste'molchiga yetkazish jarayonida yo'qotiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda asosan kanallarni betonlash, yopiq quvurlardan foydalanish, avtomatik shlyuzlar, suv o'lchagichlar, oqishni aniqlash sensorlari, raqamli suv hisobi suv tejovchi innovatsiyalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu texnologiyalar suvning fizik harakatini boshqarish bilan bir qatorda suv taqsimotining shaffofligini ham oshiradi [8].

Yerning notekisligi sug'orishda suvning maydon bo'ylab bir xil tarqalmasligiga sabab bo'ladi. Ayrim qismlarda suv ortiqcha, boshqa qismlarda esa yetarli bo'lmisligi mumkin. Lazerli tekislash orqali maydon mikrorelyefini aniqlash va tekislash imkoni paydo bo'ladi. Bu suvning bir tekis tarqalishi va ortiqcha suv to'planishining kamayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, mulchalash va boshqa agrotexnologik choralar tuproq yuzasidan samarasiz bug'lanishni kamaytirib, suv mahsulдорligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Suv tejovchi innovatsiyalarning keyingi bosqichi raqamli boshqaruv bilan bog'liq. Zamonaviy Smart Irrigation tizimi quyidagi elementlarni qamrab oladi: tuproq sensori → IoT → ma'lumotlar bazasi → tahlil → AI/algorithm → avtomatik klapan → optimal sug'orish [9].

Tuproq namligi sensorlari ekin ildiz zonasidagi namlikni aniqlaydi. Ob-havo ma'lumotlari bilan birgalikda bu ma'lumotlar o'simlikning suv ehtiyojini prognoz qilish imkonini beradi.

GIS va sputnik monitoringi orqali esa asosan hududlar bo'yicha ekinlarning holati, namlik darajasi, suv tanqisligi, o'simlikning stress holati aniqlanishi mumkin. Bu usul an'anaviy "butun maydonni bir xil sug'orish" modelidan "ekinning real ehtiyojiga qarab sug'orish" modeliga o'tishni ta'minlaydi.

Suv tanqisligi sharoitida mavjud foydalanilgan suvdan qayta foydalanish ham muhim innovatsion yo'nalish hisoblanadi va bu yo'nalish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ushbu innovatsion yo'nalishda asosiy vazifalardan biri drenaj suvlaridan qayta foydalanish, tozalangan oqova suvlardan foydalanish, aylanma suv ta'minoti, suvni yig'ish va saqlash texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, suvni qayta ishlash texnologiyalarini qo'llashda ekologik xavfsizlik birinchi o'rinda turishi kerak. Qayta ishlatiladigan suvning sifati, tuzlanish darajasi va sanitariya talablariga muvofiqligi nazorat qilinishi zarur [10–12].

Suv tejovchi texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi bir nechta ko'rsatkichlar orqali baholanishi mumkin [13].

1) Suv tejash koeffitsiyenti:

$$WSC = (W_0 - W_1) / W_0 \times 100$$

bu yerda:

W_0 — texnologiya joriy etilgunga qadar suv sarfi;

W_1 — texnologiya joriy etilgandan keyingi suv sarfi [14].

2) Suvdan foydalanish samaradorligi:

$$WP = Y / W$$

**3) Investitsiya samaradorligi:**

$$ROI = (\Delta P - I) / I \times 100$$

bu yerda:

ΔP — texnologiya natijasida qo'shimcha iqtisodiy natija [15];

I — investitsiya hajmi.

4) Bir kub metr suvga to'g'ri keladigan daromad [16]:

$$WR = R / W$$

Ushbu ko'rsatkich suv resursining iqtisodiy qiymatini baholash uchun ayniqsa muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Texnologiyaning mavjudligi uning avtomatik ravishda keng tarqalishini ta'minlamaydi. Fermer texnologiyani qabul qilishi uchun uning iqtisodiy jihatdan maqbulligi, moliyaviy imkoniyati va texnologik bilimlari mavjud bo'lishi kerak.

Shuning uchun innovatsion jarayonning asosiy subyektlari: davlat, fermer xo'jaliklari, banklar, xususi investorlar, texnologiya ishlab chiqaruvchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim tashkilotlari, suv iste'molchilari o'rtasidagi hamkorlikni talab etadi.

Suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligida suvga bo'lgan talabning ortishi sharoitida suv tejovchi innovatsion texnologiyalar mamlakatning iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta'minlashning strategik vositasiga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, suv tejovchi innovatsiyalarning mohiyati suv sarfini mexanik ravishda qisqartirishdan iborat emas. Ularning asosiy maqsadi cheklangan suv resursi hisobiga yuqori mahsulot, daromad va ekologik natija olish, ya'ni suv mahsuldorligini oshirishdan iborat.

Tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, diskret sug'orish, lazerli yer tekislash, mulchalash, yopiq irrigatsiya tarmoqlari, IoT, GIS, sputnik monitoringi va sun'iy intellekt kabi texnologiyalar suv tejovchi innovatsiyalarning turli bosqichlarini tashkil etadi. Biroq ularning samaradorligi har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va institutsional sharoitiga bog'liqdir. Shu o'rinda aytish kerakki, raqamli suv hisobini bosqichma-bosqich kengaytirish zarur. Tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish bilan birga lazerli tekislash, mulchalash va minimal ishlov berish kabi agrotexnologiyalarni kompleks joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fermerlar uchun suv tejovchi texnologiyalarni boshqarish bo'yicha doimiy ta'lim va konsalting tizimini kuchaytirish zarur, shuningdek, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va texnologiya kompaniyalari ishtirokida suv innovatsiyalari markazlarini tashkil etish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi "Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-47-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-8036872>
2. FAO. *Guidance on Realizing Real Water Savings with Crop Water Productivity Interventions*. – Rome, Italy: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2021.
3. FAO. "Real Water Savings in Agriculture" // *FAO Water Scarcity Platform*. – Food and Agriculture Organization of the United Nations.
4. FAO. "Why Agricultural Water Productivity is Important for the Global Water Challenge" // Food and Agriculture Organization of the United Nations.
5. FAO. "Irrigation and Agricultural Water Management" // Food and Agriculture Organization of the United Nations.
6. Yue Z., Zhuo L., Ji X. et al. Water-saving irrigated area expansion hardly enhances crop yield while saving water under climate scenarios in China // *Communications Earth & Environment*. – 2025.
7. Duan W., Yin Y., Bao X., Yin C. Policy intervention mechanism on farmers' intention to promote water-saving irrigation: Evidence from China // *Journal of Rural Studies*. – 2026.
8. Xu H., Yang R. Does water rights reform reduce water usage for agriculture? Evidence from city-level panel data in China // *Irrigation and Drainage*. – 2025.
9. China's water-saving irrigation management system: Policy, implementation, and challenge // *Sustainability*. – MDPI.
10. Towards more water-efficient agriculture: A study on the impact of China's water resource tax on agricultural water use efficiency // *Sustainability*. – 2025.
11. World Bank. "Water Resources Management and Agricultural Water Efficiency". – World Bank.



12. UNESCO. *United Nations World Water Development Report*. – Paris, France: UNESCO.
13. Rogers E. M. *Diffusion of Innovations*. – New York, NY, USA: Free Press.
14. Ostrom E. *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. – Cambridge, U.K.: Cambridge University Press.
15. Shoskhujayeva Z., Sangirova U., Seytimbetova Z., Yaqubova K., Durmanov A. Enhancing agricultural productivity through effective water resource distribution and governance // *Digital Technologies in Agriculture of the Russian Federation and the World Community*. – Stavropol, Russian Federation: Stavropol State Agrarian University, AIP Conference Proceedings, 2025. – Vol. 3399. – P. 050008. – DOI: 10.1063/5.0325018.
16. Shokhojaeva Z. S., Sangirova U. R. Modernization of agriculture in the transition to a digital economy // *Sustainable Agriculture*. – 2024. – No. 4(24).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
